

## TA'LIM SOHASIDAGI KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Nasulloyeva Shahnoza Ilhom qizi  
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi  
Din psixologiyasi yo`nalishi magistranti  
Shahnozanasulloyeva01@gmail.com

**Annotatsiya:** Ta'lism sifatining samaradorligini ta'minlab beruvchi asosiy narsa bu to'g'ri tashkil qilingan kadrlar boshqaruvi tizimidir.

**Kalit so'zlar:** ta'lism tizimi, kadrlar boshqaruvi, psixologik muammolar, stress, rag'batlantirish, psixologik hamkorlik.

### KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqiyosida va mamlakatimizda dolzarb bo'lgan masalalaridan biri bu ta'lism sohasi va undagi kadrlar boshqaruvi tizimidir. Ta'lism tizimi bu mamlakat rivojining asosiy tayanchi hisoblanadi. Bu xususida yurtboshimiz quyidagi fikrlarni ta'kidlaydilar: Biz Yangi O'zbekistonni bunyod etishda sog'lom va barkamol yoshlarmizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san'at va sport bo'yicha salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirdorlik faoliyatini rag'batlantirish borasida ham yangi tizim yaratamiz. Takror va takror aytaman: Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lism va tarbiya bo'ladi!<sup>1</sup> Kelajak avlod ma'nан yetuk, jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishi bevosita ta'lism tizimidagi kadrlar ya'ni o'qituvchi va murabbiylar mehnati bilan chambarchas bog'liq. Har qanday tashkilotda, shuningdek, ta'lism sohasida ham samarali kadrlar boshqaruvi tizimini yo'lga qo'yish kelgusida ijobiy natijalarga erishish imkonini yanada oshiradi.

Ta'lism muassasasida xodimlarni boshqarish bir vaqtning o'zida tashkilotlar tizimi, jarayon va tuzilma sifatida ishlaydi. Tizim sifatida bu muassasaning normal faoliyat ko'rsatishi, rivojlanishi va kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan o'zaro bog'liq tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy choratadbirlar tizimidir.<sup>2</sup>

Ta'lism tizimidagi xodimlarini samarali boshqarishda bir qancha muammolar uchrab turadi. Bular jumlasiga ma'muriy va tashkiliy to'siqlar bilan birlgilikda, xodimlarni boshqarish tizimidagi psixologik muammolar o'qituvchilar va xodimlarning ish faoliyati samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Quyidagi tezis orqali biz ta'lism sohasidagi xodimlarni boshqarish tizimida yuzaga keladigan asosiy psixologik muammolarni ko'rib chiqamiz.

<sup>1</sup> <https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi>

<sup>2</sup> Базаров Т.Ю., Б.Л. Еремин, Управление персоналом, 13-е изд., перераб. и доп. - М.: 2015. — 320c

Asosiy muammolardan biri bu **ortiqcha ish yuki va kasbiy faoliyatdagi stress**. Eng ko‘p uchraydigan psixologik muammolardan biri ta’lim sohasida o‘qituvchi-pedagoglarning ortiqcha ish yukidir. O‘qituvchilar doimiy faoliyatida dars jadvallari, dars ishlanmalari, talabalarni baholash bo‘yicha nazorat olib borish mas’uliyati va boshqa bir qancha ma’muriy vazifalarga duch kelishadi, bu esa ish bilan bog’liq stress va hissiy charchoqqa olib keladi. Shuningdek, o‘quv dasturlari talablari, talabalarga ular xohlagandek ta’lim berish va ma’muriy talablarni bajarish bosimi ularning ruhiy salomatligi va umumiyl ishdan qoniqish ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi.

**E’tirof etish va mukofotlash tizimidagi muammolar.** Ta’lim muassasalarida e’tirof va mukofotlar iqtidorli o‘qituvchilarni rag’batlantirish hamda o‘sha yerda uzoq muddatli faoliyat olib borishlarida muhim rol o‘ynaydi. Biroq, mukofotlash tizimida ko‘p hollarda bir qancha muammolar uchraydi. Bular mukofot qiymatining pastligi yoki yil davomida, shuningdek, faoliyati davomida erishgan yutuqlarining e’tibordan chetda qolib ketishi va boshqalar. Bu muammolar oxir-oqibat pedagog kadrlarda ish faoliyati motivatsiyasining pasayishi yoki butunlay yo‘q bo‘lib ketishiga, kasbiy rivojlanishning so‘nishiga va eng yomon tomoni ta’lim sifati pasayishiga olib keladi.

**Ish va hayot muvozanatidagi muammolar:** Bu ish talablari, kasbiy mas’uliyat va shaxsiy hayot o‘rtasidagi sog’lom muvozanatni saqlay olmaganda yuzaga keladi. Ishxona muhitidagi kasbiy talabchanlik, jumladan, uzoq ish soatlari, ortiqcha ish yuki darsdan tashqari mashg’ulotlar va shuningdek, belgilangan qat’iy tartib-qoidalar, shaxsiy va professional hayot o‘rtasida muvozanatga erishishga to‘sinqilik qiladi. Ushbu nomutanosibliklar stress, kasbiy charchoq va ishdan qoniqishning pasayishiga olib kelishi mumkin, natijada o‘qituvchilarning psixologik salomatligi va umumiyl samaradorligiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

**Rahbar va xodimlar o‘rtasida o‘rnatilgan hamkorlikdagi kamchiliklar.** Samarali muloqot va hamkorlik muvaffaqiyatli xodimlarni boshqarish tizimi uchun zarurdir. Biroq, ta’lim muassasalarida ko‘p hollarda rahbar va xodimlar o‘rtasida samarali hamkorlik o‘rnatilmaydi. Bunga sabab sifatida vaqt muammolarini asos qilib olishimiz mumkin. E.V.Gubanixina zamonaviy ta’lim tashkilotini boshqarishda rahbar faoliyatida ijtimoiy-psixologik iqlimni hisobga olish, shu jumladan qulay ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirishga imkon beradigan shart-sharoitlar va omillarni yaratish muhim rolini qayd etadi.<sup>3</sup> Rahbar va xodimlar o‘rtasidagi o‘rnatilgan to‘g’ri muloqot va hamkorlik kelgusida xodimlar orasida o‘zaro tushunmovchiliklar, ichki nizolar va o‘zaro ishonchsizlikka barham beradi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’lim sohasidagi kadrlarni boshqarish tizimi uning samaradorligiga to‘sinqilik qilishi mumkin bo‘lgan bir nechta psixologik

<sup>3</sup> Губанихина Е.В., Чижова С.М. Специфика деятельности руководителя в системе управления современной образовательной организацией // Молодой ученый. 2016. № 2(124). С. 288-291.

muammolarga duch keladi. Ushbu muammolarga yuqorida qayd etilganidek, o‘qituvchilar orasida yuqori darajadagi stress va kasbiy charchoq, ular faoliyatidagi qo‘llab-quvvatlanishning pastligi, turli jamoalarni boshqarishdagi qiyinchiliklar va qarama-qarshi manfaatlar, shuningdek, mukofotlash tizimidagi kamchiliklar va boshqalar misol bo‘la oladi. Bu psixologik muammolarni hal qilish o‘qituvchilar uchun ijobiy va samarali ish muhitini yaratish uchun juda muhimdir, natijada talabalar va umuman ta’lim tizimida o‘zgarishlar, aniqroq aytadigan bo‘lsak, ta’lim sifati ma’lum bir pog’onaga ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Ta’lim muassasalari rahbarlari uchun o‘z xodimlarining ruhiy holatini birinchi o‘ringa qo‘yish va ularning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash strategiyasini amalga oshirish zarur. Bu strategiya pedagog kadrlar uchun kasbiy stressni boshqarish va yengish bo‘yicha psixologik treninglar, shuningdek, kasbiy rivojlanish va malaka oshirish uchun barcha imkoniyatlar va shart-sharoitlarni yaratish, tashkilot ichida rahbar va xodimlar o‘rtasida samarali muloqot va hamkorlikni tashkil etish kabilarni o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, ta’lim tashkilotlari psixologik muammolarni hal qilish orqali xodimlarni boshqarish tizimi o‘qituvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq qo‘llab-quvvatlashi va yanada samarali va barqaror ta’lim tizimiga hissa qo‘sishi mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. <https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-vatibiya-boladi>
2. Базаров Т.Ю., Б.Л. Еремин, Управление персоналом, 13-е изд., перераб. и доп. - М.: 2015. — 320с
3. Губанихина Е.В., Чижова С.М. Специфика деятельности руководителя в системе управления современной образовательной организацией // Молодой ученый. 2016. № 20 (124). С. 288-291.